

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



“Tasdiqlayman”

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining birinchi o'rinbosari

S. Radjabov

“30” *dekabr*

“RASM, CHIZMACHILIK (rangtasvir va kompozitsiya)”
yo'nalishi bo'yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

Toshkent – 202*5*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

Tuzuvchi: **Tayanch modullari:** katta o‘qituvchi B.Jumayev,
p.f.b.f.d. (PhD) E.Buriyev, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Rajabova S.F., katta o‘qituvchi Bakayev Z.Z.,
Buxoro davlat universiteti “Tasviriy va amaliy san’at”
kafedrası dotsenti Abdullayev S.S.

Taqrizchi: Buxoro davlat pedagogika instituti “Tasviriy san’at” kafedrası
professori, p.f.d.(DSc) Yadgarov N.D.

Xorijiy ekspert: Zubrilin Konstantin Mixaylovich, falsafa doktori, dotsent,
Moskva davlat pedagogika universitetining “Tasviriy san'at”
fakulteti dekani.

*O‘quv dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining qarori bilan
tasdiqqa tavsiya qilingan. (2025- yil “___” _____-sonli yig‘ilish bayonnomasi)*

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish, ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, tasviriy san’at va chizmachilik darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikalarini qo‘llash darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi tayanch modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

- 1.1. Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar.
- 1.2. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.
- 1.3. Tasviriy san’at va chizmachilik darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikalari.
- 1.4. Yakuniy nazorat

Kursning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- o'rta maxsus ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlarni;
- pedagog xodimlardan talab qilinadigan o'quv-me'yoriy hujjatlarni;
- BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi va O'zbekiston tajribasini;
- bolalarga nisbatan zo'ravonlik tushunchasi va turlarini;
- inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlarini;
- inklyuziv ta'lim konsepsiyasi, modellari va strategiyalarini;
- turfa xil ta'lim oluvchilarni qo'llab-quvvatlashni shakl, metod va vositalarini;
- ta'limdagi sun'iy intellektning xususiyatlarini;
- ta'lim sohasida sun'iy intellektidan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini;
- aqamli ta'lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams va boshqalar)ni;
- raqamli vositalardan foydalanish etikasini;
- kiberxavfsizlik asoslarini;
- raqamli etiket va akademik halollikni;
- plagiat, kontrafakt, akademik firibgarlik tushunchalarini;
- sun'iy intellektidan halol foydalanish me'yorlarini;
- tasviriy san'at va chizmachilik darslarida 5E o'quv modellarini (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate);
- o'quvchilarni guruhdagi ishtiroki, fikr bildirishlari va tadqiqot qobiliyatlarini baholash usullarini;
- tasviriy san'at va chizmachilik darslarida STEAM. STEAM orqali o'quvchilarga fanlar o'rtasida bog'lanishlarni tushuntirish metodikasini;
- STEAMda fanlararo integratsiyani;
- GitHub tasviriy san'at ta'limida loyiha va muammoga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning, Problem-Based Learning)ni;
- tasviriy san'at va chizmachilik darslarida raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishni;

- tasviriy san'at va chizmachilik darslarida o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali metodlarini ***bilishi kerak***.

Tinglovchi:

- pedagog xodimlarga beriladigan malaka toifasi hamda ustamalar berish tartiblarini o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq etish;
- bolalar huquqini himoya qilish, o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash;
- korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantiruvchi mashg'ulotlarni o'tish;
- inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, modellar va huquqiy kafolatlaridan samarali foydalanish;
- inklyuziv ta'limda pedagogning rolini kuchaytiruvchi yo'llarni aniqlash;
- pedagogik jarayonda sun'iy intellektdan samarali foydalanish;
- raqamli ma'lumotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish;
- o'quvchilarni internetda mas'uliyatli foydalanishga o'rgatish;
- shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash tamoyillaridan foydalanish;
- raqamli muhitdagi muloqot madaniyatini shakllantirish.;
- onlayn ta'lim jarayonida etik me'yorlarga rioya qilishni o'rgatish;
- sun'iy intellektdan halol foydalanish meyorlariga rioya etish;
- o'quvchilarning dars mavzusiga qiziqishini uyg'otish va ularni faoliyatga jalb qilish;
- o'quvchilarga mavzu bo'yicha mustaqil izlanish va yangi bilimlarni kashf qilish imkonini yaratish;
- o'quvchilarning o'rganilgan bilimlarini kengaytirish va ularni boshqa mavzular bilan bog'lash;
- tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish metodlarini qo'llash;
- tasviriy san'at va chizmachilik darslarida o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali metodlarini joriy etish;
- o'quvchilarning amaliy tajribalarni va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish ***ko'nikma va malakalariga*** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash;
- ta'lim tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va tarbiyaviy muhitni mustahkamlash;
- zo'ravonlikni aniqlash, psixologik yordam ko'rsatish, profilaktik suhbatlar o'tkazish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish;
- inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlarini o'zlashtirish va amalda qo'llash;
- raqamli vositalardan o'qitish jarayonida samarali foydalanish;
- SI yordamida dars rejalari, testlar va tahliliy hisobotlarni yaratish;

- raqamli ta'lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams va boshqalar)dan samarali foydalanish;
- raqamli vositalardan foydalanish etikasiga rioya etish;
- akademik halollik tamoyillarini o'rgatish va uning buzilish shakllarini aniqlash;
- sun'iy intellekt texnologiyalaridan mas'uliyatli, axloqiy va halol foydalanish;
- hamjihatlik, o'zaro hurmat va tolerantlikni kuchaytirish;
- tasviriy san'at va chizmachilik darslarida 5E modelini qo'llash;
- hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish;
- fanni o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining ahamiyatini yoritib berish;
- loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvi asosida tasviriy san'at va chizmachilik darslarini tashkil qilish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

“RASM, CHIZMACHILIK (RANGTASVIR VA KOMPOZITSIYA)” YO'NALISHI BO'YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI TAYANCH O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Ta'limdagi islohotlar va sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

O'rta maxsus ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlar. Xalqaro tajribalar. Pedagog xodimlarga malaka toifasi hamda ustamalar berish tartiblari. Pedagog xodimlardan talab qilinadigan o'quv-me'yoriy hujjatlar.

Ta'lim tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va tarbiyaviy muhitni mustahkamlash. BMTning “Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyasi va O'zbekiston tajribasi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik tushunchasi va turlari. Zo'ravonlikni aniqlash, psixologik yordam ko'rsatish, profilaktik suhbatlar. Bolalar huquqini himoya qilish, o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish.

Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlari. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi, modellari va strategiyalari. Turfa xil ta'lim oluvchilarni qo'llab-quvvatlashni shakli, metodi va vositalari. Inklyuziv ta'limda pedagogning rolini kuchaytirish yo'llari.

1.2. Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.

Sun'iy intellekt va ta'limdagi yangi imkoniyatlar. Ta'limdagi sun'iy intellektning xususiyatlari. Ta'lim sohasida sun'iy intellektidan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari. Pedagogik jarayonda sun'iy intellekt. ChatGPT, Copilot, Khanmigo kabi SI vositalari orqali o'qitish. O'quvchilarning mustaqil o'rganish jarayonida SI qo'llanilishi. SI yordamida dars rejalari, testlar va tahliliy hisobotlarni yaratish.

Raqamli ta'lim muhiti va pedagogning raqamli kompetensiyasi. Raqamli ta'lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams va boshqalar). O'qituvchi faoliyatida raqamli vositalardan foydalanish etikasi. Raqamli ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati. Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash tamoyillari. Kiberxavfsizlik asoslari. O'quvchilarni internetda mas'uliyatli foydalanishga o'rgatish

Raqamli etiket va akademik halollik. Raqamli muhitdagi muloqot madaniyatini shakllantirish. Onlayn ta'lim jarayonida etik me'yorlarga rioya qilishni o'rgatish. Akademik halollik tamoyillarini o'rgatish va uning buzilish shakllarini aniqlash. Plagiat, kontrafakt, akademik firibgarlik tushunchalari. Sun'iy intellekdan halol foydalanish me'yorlari. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan mas'uliyatli, axloqiy va halol foydalanish.

1.3. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikalari.

Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida 5E modelini qo'llash. 5E modeli haqida tushuncha. O'quvchilarning dars mavzusiga qiziqishini uyg'otish va ularni faoliyatga jalb qilish. Engage (Jalb qilish). O'quvchilarga mavzu bo'yicha mustaqil izlanish va yangi bilimlarni kashf qilish imkonini yaratish. Explore (Tadqiq qilish). Explain (Tushuntirish). O'quvchilarning o'rganilgan bilimlarini kengaytirish va ularni boshqa mavzular bilan bog'lash. Elaborate (Boyitish). Evaluate (Baholash).

O'quvchilarni guruhdagi ishtiroki, fikr bildirishlari va tadqiqot qobiliyatlarini baholash usullari. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida STEAM. STEAM orqali o'quvchilarga fanlar o'rtasida bog'lanishlarni tushuntirish metodikasi. STEAMda fanlararo integratsiya. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. GitHub tasviriy san'at ta'limida loyiha va muammoga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning, Problem-Based Learning). Fanni o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining ahamiyati.

Tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish metodlari. Loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvi asosida tasviriy san'at va chizmachilik darslarini tashkil qilish. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali metodlari. O'quvchilarning amaliy tajribalarni va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar.

1.4. Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modullarini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan kam ko'rsatkichga erishgan tinglovchilarga ikki marta qayta topshirish imkoniyati beriladi. Qayta topshirish natijasida onlayn test sinovlaridan 60 foizdan kam ko'rsatkichga erishgan tinglovchilar kursni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovasion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda

o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba ortirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash; iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar bilan ishlash;ilmiy anjumanlarda ma'ruza bilan qatnashish;ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish;o'quv adabiyotlari (hammualliflikdagi darslik, o'quv qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba ortirishda akademik liseylar pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlaridan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'nggi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston.– T.: “O'zbekiston” NMIU, 2021. - 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. «Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar». – T.: “Tasvir”, 2021. - 52 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2023. - 536 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin, obod va farovon mamlakatni - Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2023. - 368 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2023. - 392 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2024. -344 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4860-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” PQ-358-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” 296-son Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 717-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi “2025-2026-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 425-son Qarori.
13. BMT. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. 1948.
14. BMT. Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya.1989.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Zulunov R.M. Sun’iy intellekt texnologiyalari – T.: Classic, 2024.
2. Mo‘minov B.B., Sun’iy intellekt (O‘quv qo‘llanma). – T., 2023.
3. Babaxodjaeva N.M. Sun’iy intellekt va neyron to‘rli texnologiyalar. - T., 2023.
4. Toirov S.S., Axmedov U.M. Axborot tizimlari va texnologiyalari (o‘quv qo‘llanma). – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 240 b.
5. Abduraxmonov R.M. Pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitlari. – T.: Fan va texnologiya, 2021. – 200 b.
6. Muminova L.R, Nazarova D.A. Inklyuziv va maxsus ta’lim atamalarining izohli lug‘ati. – T., 2021.
7. Nazarova D.A, Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). -T.: Innovatsiya-ziyo, 2020.
8. Nazarova D.A. Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda ta’lim klasteri sub’yektlarining o‘rni. //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference.
9. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.12, December 2021,ISSN: 2660-5643/ Page 149.
10. Butterworth, J., & Mitchell, D. (2013). Inclusive Education and its Social Benefits. London: Routledge. 77-80 p.
11. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal. 28 p.
12. Nazarova, D. A. (2020). "Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction 'Managers of Educational Institutions' to the Effective Organization of Inclusive Education."European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(8), 7-12.
- 13.“Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent shahri. 2021-yil 26-mart.- 335 b.
14. Hasanov. R.Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. -T.: 2004. – 168.
15. Abdirasilov S. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. -T: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012. – 230 bet.

16. Ismailov A., va boshqalar. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma. 1-son. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan test topshiriqlari to'plami. – T.: O'qituvchi, 2020. – 145 b.
17. Jumanazarov S. Ta'limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. – T., 2023. – 46 b
18. Rixsiboyev T., Rixsiboyeva X. Tursunov S., Alimov F., Hodjayeva U. Kompyuter grafikasi.-T.: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2018.
19. M.V.Shah, B.C.Rana. Engineering Drawing, India by Sai Print-O-Pac Pvt.Ltd. India, 2007, 2009.
20. N.Yodgorov – Chizmachilik. -B.: “Durdona”, 2020.
21. D. Mamatov. Muhandislik kompyuter grafikasi. -B. :Kamolot nashriyoti, 2021.
22. E.Ro'ziyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. -T.: Yangi asr avlodi, 2020.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://edu.uz>
2. <http://lex.uz>
3. <http://lib.bimm.uz>
4. <http://ziyonet.uz>
5. <http://natlib.uz>

“ISHLAB CHIQILGAN”:

Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori


 U.Sh.Begimkulov

“26” dekabr 2025-y.

M.O.

“KELISHILGAN”:

Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi

 F.T.Esanboboyev

“29” dekabr 2025-y.

Buxoro davlat universiteti rektori

 O.X.Xamidov

“ ” 2025-y.

M.O.

Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markaz direktori

 B.R.Adizov

“ ” 2025-y.

M.O.

